

CHO'LPON SHE'RLARINING LINGVOPOETIKASI

Aliqulova O'g'iloy Rustam qizi

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Jurnalistika
va o'zbek filologiyasi fakulteti 2-bosqich talabasi.*

Annotatsiya: Bugungi kunda jahon va o'zbek adabiyotida lingvopoetika bo'yicha ko'p ilmiy izlanishlar olib borilmoqda, ba'zan bu izlanishlar davomida biz ilmiy ziddiyatlarga duch kelishimiz mumkin. Negaki, har xil davrlarda ijod qilgan adiblarning tili va uslubi aniq lisoniy vositalar bilan to'liq tadqiq etilmagan. Fedin ta'kidlaganidek, "Til- yozuvchi uslubining qalbi". Shunday ekan har bir ijodkorning asarlari bir-biridan keskin farq qiladi., "Adabiyot har bir millatning hisli ko'ngil tarixining eng qorong'u xonalarida maishat (tirikchilik) ning ketishiga qarab har xil tusda va rangda yetishgan, fayzli til birla taqdir etula olmaydurg'on bir guldur. Ushbu yashayotgan muhitimiz doirasida uning to'liqini odamning har xil maishatiga qarab o'zgaradi",-deydi Cho'lpon. Ushbu maqolada jadid adabiyoti namoyandalaridan biri bo'lgan Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon she'rlarining lingvopoetik xususiyatlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Cho'lpon, lingvopoetika, fonetik poetika, metafora, metonimiya, sinekdoxa,

Kirish: Jahon tilshunosligida o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab badiiy matnning til xususiyatlarini o'rganishga e'tibor kuchaydi. Buning natijasida lingvopoetika deb ataluvchi tilshunoslik tarmog'i shakllanib, istiqbolli bir yo'nalishga aylanib ulgurdi. Lingvopoetika mohiyatan fanlararo tadqiqot sohasi bo'lib, u og'zaki va badiiy ijod asarlarini tahlil qiladi va o'ziga xos konsepsiyadan foydalanadi. Filologiyada adabiy asarning lingvestik va mazmun jihatlarini ko'rib chiqishda matnning stilistik xususiyatlariga e'tibor qaratish bilan asarni estetik jihatdan o'rganish an'analari mavjud.

Avvalo, lingvopoetika nima degan savolga tilshunos Z.Sh.Ashurova shunday javob beradi: „Bu soha badiiy matnni til sathlari negizida tadqiq qilishni masalaning bir qirrasini qamrab olishi tabiiy. Negaki, tilning benihoya keng imkoniyatlarini ishga solib undagi leksik birliklar bo'ladimi, grammatik birliklar bo'ladimi barchasini qamrab olish nazarda tutiladi. Lingvopoetik tahlil usuli shundan iboratki, badiiy matndagi ijodkorning individual uslubiga xos qirralarini kashf etish bilan birgalikda so'z va gap ma'nolarining o'zaro yaxlitligi , birikuvini tadqiq qilishni nazarda tutadi. Lingvopoetikaning asosiy tadqiqot obyekti badiiy matn sifatida qarashimiz mumkin, chunki leksemalar badiiy matnda o'ziga poetik yuk oladi. Biroq har qanday leksema badiiy matnda poetik vazifa bajaradi deya olmaymiz. Chunki yozuvchi, adiblar ayrim so'zlargaгина o'zining yashirin maqsadini o'quvchiga yetkazish uchun badiiy vazifa yuklaydi.

Muhokama va natijalar: Badiiy matnning asosiy quroli so'z hisoblanadi. "Tilshunoslik fani badiiy adabiyot bilan uzviy aloqadordir, negaki til aloqa vositasi sifatida muayyan axborot tashuvchi oddiy belgilar sistemasigina bo'lib qolmay, balki tinglovchiga ta'sir qiluvchi qudratli vosita hamdir. Tilning birinchi funksiyasi an'anaviy va sistemstruktur tilshunoslikning o'rganish

obyektidir“ ,deb yozadi A.Nurmonov va Sh.Iskandarova. Lingvopoetikaning poetik fonetika yo‘nalishi yozuvchi tomonidan tanlab olingan uslubni yaratishda ma’lum tovushning o‘ziga xos tarzda o‘zgarishi, orttirilishi va shunga o‘xshash holatlarning yuzaga chiqishi yordamida hosil bo‘ladi. Bularning yorqin misolini Cho‘lponning ijodida ko‘rishimiz mumkin:

1. Ko‘m-ko‘k go‘zal o‘tloqlaring bosilg‘on,
Ustlarida na poda bor, na yilqi.
2. Sening erkin tuprog‘ingda hech haqi yo‘q xo‘jalar,
Nega seni bir qul kabi qizg‘anmasdan yanchalar?
(Buzilgan o‘lkaga)
3. Ayрилиqning chidab bo‘lmas maloli
Ko‘klam, maysa yuzlarida qaynama!
(Ko‘klam qayg‘usi)

Poetik leksikologiya yo‘nalishining tadqiqot ko‘lami juda keng qamrovlidir. U o‘z doirasida sinonim, omonim, antonim so‘zlarni, ma’no ko‘chishning barcha turlarini (metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik, kinoya, tag ma’no), chegaralangan leksikani (dialektizmlar, istorizmlar, arxaizmlar va hokazo) tahlil qiladi.

Ma’no ko‘chishi bir predmet nomining keyinchalik boshqa predmetni anglatish xususiyatga ega bo‘lishidir. Bunday ko‘chish shu nom bilan atalayotganlik yoki undan ortiq predmet o‘rtasidagi aloqadorlikka asoslanadi. Nutqqa obrazlilik, ekspressiv bo‘yoq berish niyatida narsa va hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslanib, so‘z yoki iboralarni ko‘chma ma’noda qo‘llash metafora deyiladi. Aristotel (Arastu) bu atamani keng ma’noda qo‘llagan. Faylasuf o‘zining „Ritorika“ asarida quyidagi fikrni ifodalaydi: „Metafora yuksak darajada aniqlik, yoqimlilik va oxorlilik jozibasiga ega, undan o‘rinli foydalanish nutni bezaydi“. Metaforani yashirin o‘xshatish deb atash mumkin. Jadid adabiyotining yirik namoyondalaridan biri Cho‘lponning ijodida ham yashirin o‘xshatishlar (metaforalar) bisyordir:

- > Qilichlarning tillarida qizil qon
Buloqlarning suvi yanglig‘ toshdimi?
- > Ayniqsa, shamolning u yumshoq sho‘xligi
Shoxlarda barglarni titratdi, o‘ynatdi.
- > Go‘zallarning malikasi ekansan,
Buni sening ko‘zlaridan o‘qidim.
(Suygan choqlarda)

Ma’no ko‘chishi turlaridan yana biri metonimiyadir. Metonima bu narsa yoki hodisaning nomi o‘zini yaqin, bog‘liq bo‘lgan boshqa narsaga ko‘chirilishini bildiradi, ya’ni o‘xshashlikka emas, balki aloqadorlikka asoslangan ko‘chirimdir. Metonimiya „qayta nom“ deganidir. Bunday ma’no ko‘chishiga tashqi va ichki o‘xshashliklar hisobga olinmaydi, balki so‘z ma’nolarining bir-biriga bog‘liqligi hisobga olinadi.

1. Ay bevalar, bechoralar
Ay bog‘langan kishanlarga
Ay erk uchun ovoralar

Ko‘p yalinmang siz ularga.

Sinekdoxa bu birgina nazarda tutmoq, birga o‘ylamoq degan ma’nolarni bildiradi. Metonimiya (majoz) ning ko‘rinishlaridan biri; sinekdoxa ham ma’no ko‘chishi o‘xshashlik, bog‘liqlikka asoslansada, bu yerda ko‘chish obyektlari o‘rtasidagi miqdoriy belgi yetakchilik qiladi; butun narsaning nomini uning qismi nomi bilan atash va aksincha, qism nomini butun narsaning nomi bilan atash, ko‘plik sondagi so‘z o‘rniga birlik sondagi so‘zni qo‘llash yoki aksincha ishlatish, ba‘zan jins-tur munosabatidagi so‘zlarning bir-biri o‘rnida qo‘llanishi va boshqalar. Sinekdoxa badiiy adabiyotda asarning ta’sirchanligi va emotsionalligini oshirishda yoki subyektiv munosabat bildirishda muhim vosita hisoblanadi. Masalan, Cho‘lpon she’rlariga nazar solsak:

1. Bir ko‘z yo‘qmi qonli yoshi tommagan,
Butun ko‘ngil umidsizmi, siniqmi.

(Yong‘in)

2. Ana sochdim qalbidagi gullarni
Termoq uchun chaqiramen qo‘llarni

(Mahmud Xo‘ja (Behbudiy) xotirasi)

Milliy uyg‘onish davri namoyondalaridan biri bo‘lgan Cho‘lpon, Turkiston xalqining orzu-istaklarini, dard-alamlarini she’rlarida nihoyatda ustalik bilan bayon qilib bergan. Cho‘lpon she’riyatining mavzu doirasi keng. Uning she’rlarida yangicha ruh, so‘zning takrorlanmas jilolari, ohorli misralarning ba’zi o‘rinlarda bir-birini inkor qilgani holda yangicha mulohazalarga yo‘l ochadi.

Xulosa qilib aytganda, Cho‘lpon she’rlarida lingvopoetik xususiyatlarni ko‘plab uchratish mumkin. Ayniqsa, ko‘chim turlaridan metafora, metonimiya, sinekdoxa. Shoir bu ko‘chim turlari bilan xalqni, millatni ma’rifatli qilishga kirishgan intilishlarni mahorat bilan tasvirlagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nargiza Erkaboyeva. O‘zbek tilida ma’ruzalar to‘plami. - Toshkent: „Yosh kuch“ – 2019
2. Nurmonov A, Iskandarova Sh. Tilshunoslik nazariyasi. - Toshkent: Fan: 2008. – B.152
3. R. Sayfullayeva, B. Mengliyev, G. Boqiyeva, M. Qurbonova, Z. Yunusova, M. Abuzalova. – Toshkent- 2009
4. Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq Merosi nashriyoti -2004
5. www.kh-davron.uz